petensiyalarining barqaror rivojlanishiga olib kelgan. O‘quv jarayonida ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari va kommunikativ mashg‘ulotlar ulushi ortgani aniqlangan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim grantlari ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim katalizator vazifasini bajaradi. Ular nafaqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositasi, balki professional o‘sish, metodik yangilanish va innovatsion pedagogik madaniyatni shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Grantlar o‘qituvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlab, ularni zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvchan va kreativ mutaxassisga aylantiradi.

Grant dasturlari orqali o‘qituvchilar xalqaro tajribani o‘zlashtiradi, ilg‘or metodikalarni milliy ta’lim muhitiga adaptatsiya qiladi hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati oshishiga, innovatsion muhit shakllanishiga va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining takomillashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa grantlar inson kapitalining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun grant menejmenti bo‘yicha tizimli treninglar tashkil etish, oliy ta’lim muassasalarida grant maslahat markazlarini rivojlantirish, loyiha yozish va monitoring mexanizmlarini soddalashtirish hamda o‘qituvchilarni metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, grant natijalarini ommalashtirish va ilg‘or tajribalarni replikatsiya qilish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ta’lim grantlari ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega ekanini, ular pedagogik innovatsiyalarni jadallashtirish va ta’lim sifatini oshirishning samarali instrumenti ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ta’lim grantlari ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi muhim va uzoq muddatli strategik instrument sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini tizimli ravishda takomillashtirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish hamda dars jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, ta’lim grantlari o‘qituvchilarning innovatsion faolligini kuchaytiradi. Grant loyihalari doirasida tajriba-sinov ishlari olib borish, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, raqamli platformalarni qo‘llash va interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Natijada o‘qituvchilar ijodiy fikrlashga, tashabbus ko‘rsatishga va pedagogik jarayonga yangicha yondashishga intiladi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga va o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolligining kuchayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Беккер Г.С. Человеческий капитал: теоретический и эмпирический анализ с особым акцентом на образование. 3-е изд., Чикаго, издательство Чикагского университета, 1993, 390 с.

(2). Дарлинг-Хаммонд Л., Ричардсон Н. Обучение учителей: что важно? Образовательное лидерство. 2009, том 66, № 5, с. 46–53.

(3). День С. Развитие учителей: вызовы непрерывного обучения. Лондон, Falmer Press, 1999, 251 с.

(4). ОЭСР. Результаты TALIS 2018 (том 1). Учителя и школьные руководители как учащиеся на протяжении всей жизни. Париж, издательство ОЭСР, 2019, 238 с.

(5). Редекер С. Европейская рамка цифровой компетенции педагогов. DigCompEdu. Люксембург, Издательское управление Европейского союза, 2017, 95 с.

(6). Ричардс Дж.К., Роджерс Т.С. Подходы и методы преподавания языков. 3-е изд., Кембридж, Cambridge University Press, 2014, 410 с.

(7). Xudoyberdiyev B. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta’lim sifati masalalari. “Педагогик маҳорат”, 2022, 3-son, 15–21-betlar.

Xudoyberdiyeva Shoxsanamxon Mukumjonovna (Andijon davlat universiteti)

ARCS MOTIVATSIYA MODELI ASOSIDA SINFDAN TASHQARI FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT

Annotatsiya. *Maqolada Jon Kellerning ARCS (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) motivatsion modeli va uning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish faoliyatida qo‘llanilishi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Talabalar tadqiqot davomida modelning to‘rtta asosiy komponenti – diqqat, muhimlik, ishonch va qoniqish maktab sharoitida sinov orqali tekshirdilar. 7-sinf “Oliy maqsad” mavzusida olib borilgan eksperimental ish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ARCS modeli o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularning faol ishtirokini ta’minlash va shaxsiy rivojlanishga yordam berishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, modelning metakognitiv strategiyalar, videokontentlar va xobbi asosidagi faoliyatlar bilan integratsiyalashuvi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *ARCS modeli, motivatsiya, sinfdan tashqari ishlar, metakognitiv strategiyalar, konsolidatsiya, kognitiv dissonans, prokrastinatsiya.*

Худойбердиева Шохсанамхон Мукумжоновна (Андижанский государственный университет)

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ МОТИВАЦИИ ARCS: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Аннотация. *В статье научно-теоретически и практическим образом анализируется модель мотивации ARCS (внимание, актуальность, уверенность, удовлетворение) Джона Келлера и ее применение в организации внеурочной деятельности. В ходе исследования студенты проверили четыре основных компонента модели – внимание, актуальность, уверенность и удовлетворение – в условиях школы. Результаты экспериментальной работы по теме "Высшая цель" в 7-м классе показали, что модель ARCS является эффективным инструментом для повышения мотивации учащихся, обеспечения их активного участия и содействия личностному развитию. В статье также показано интегрирование модели с метакогнитивными стратегиями, видео-контентом и деятельностью на основе хобби.*

Ключевые слова: *модель ARCS, мотивация, внеурочная деятельность, метакогнитивные стратегии, консолидация, когнитивный диссонанс, прокрастинация.*

Khudoyberdiyeva Shokhsanam Mukumjonovna (Andijan State University)

ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES BASED ON THE ARCS MOTIVATION MODEL: THEORY AND PRACTICE

Annotation. *The article scientifically and theoretically analyzes John Keller's ARCS motivation model (Attention, Relevance, Confidence, Satisfaction) and its application in organizing extracurricular activities. During the study, students examined the four main components of the model—attention, relevance, confidence, and satisfaction–within a school setting. The results of the experimental work on the topic "Higher Purpose" in the 7th grade showed that the ARCS model is an effective tool for enhancing student motivation, ensuring their active participation, and fostering personal development. The article also demonstrates the integration of the model with metacognitive strategies, video content, and hobby-based activities.*

Keywords: *ARCS model, motivation, extracurricular activities, metacognitive strategies, consoledation, cognitive dissonance, procrastination.*

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilish va zamonaviylashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu maqsadda bir qator islohotlar amalga oshirilgani ma’lum.. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning motivatsiyasi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. XX asrning oxirlarida amerikalik psixolog Jon Keller ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning motivatsiyasiga yetarli e’tibor berilmasligini payqab, 1987-yilda ARCS nomli motivatsiya modelini yaratdi. Model “kutilayotgan qiymat” nazariyasiga asoslanib, vazifa shaxsiy ehtiyojlarni qondiradigan qiymatga ega bo‘lishi va o‘quvchi o‘zining vazifani bajarish qobiliyatiga ishonishi kerakligi prinsiplariga tayanadi.

ARCS modeli, asosan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, maktab darajasida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda uning qo‘llanilishi nisbatan yangi va kam o‘rganilgan yo‘nalish hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqotning dolzarbligi modelning maktab sharoitida, xususan, sinfdan tashqari faoliyatlarda qo‘llanilishi imkoniyatlarini o‘rganish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini birlashtiruvchi aralash metodologiya asosida amalga oshirildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, eksperimental ishlar va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot 7-sinf o‘quvchilari orasida “Oliy maqsad” mavzusi bo‘yicha olib borildi. Eksperimental guruhda ARCS modelining barcha komponentlari ketma-ket qo‘llanildi va natijalari dastlabki hamda yakuniy so‘rovnomalar orqali baholandi.

ARCS modeli to‘rtta asosiy komponentdan iborat:

1. Diqqat (Attention) – o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish va saqlab qolish.
2. Muhimlik (Relevance) – o‘quv materialining o‘quvchi uchun dolzarbligini ta’minlash.
3. Ishonch (Confidence) – o‘quvchining o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

2020-yilda Serkan Dincher 26 ta turli tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlil o‘tkazdi. Fang (2023) va Prasetya (2024) tadqiqotlari ARCS modelining multimedia o‘qitish muhitlari va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari bilan birgalikda qo‘llanilishining yuqori samaradorligini tasdiqladi.

Eksperimental tadqiqot natijalari.

1. **Diqqat komponenti: Konsolidatsiya va video content.** Eksperiment jarayonida “Oliymaqsad” bobidagi ma’lumotlar konsolidatsiya qilinib, “Buyuk shaxslar” nomli video kontent yaratildi. Video materiallar tayyorlashda quyidagi strategiyalar qo‘llanildi:

•qiziqarli boshlanish (Hook): videoning dastlabki 5-10 soniyasida provokatsion savollar berish;

•interaktiv elementlar: 10 ta fikr yuritish savolini integratsiyalash;

•hikoya (Storytelling) usuli: real shaxslar hayotidan misollar keltirish;

•vizual effektlar: infografikalar va taqqoslash rasmlari (Orol dengizi, Singapur transformatsiyasi).

2. Muhimlik komponenti: metakognitiv integratsiya.

O‘z-o‘zini monitoring. O‘quvchilar “Men nega oliy maqsad qo‘ya olmayapman?”, “Mening maqsadim insoniyat uchun foydalimi?” kabi savollar bilan refleksiya qildilar.

Strategik rejalashtirish. Ota-onalar va ustozlar bilan maslahatlashish, bilimlarni oshirish yo‘llarini izlash.

Adaptiv o‘zgartirish. Muammolarni tan olish va yechim topish yo‘llarini belgilash. Vizual prezentatsiyalar orqali maqsad qo‘yishning lokal ahamiyati ko‘rsatildi: telefon o‘yinlari, vaqtni behuda sarflash, bilimdan mahrum bo‘lish kabi muammolar hamda Orol dengizi, Singapur kabi taqqoslash misollari keltirildi.

3. Ishonch komponenti. Kognitiv dissonansni bartaraf etish. O‘quvchilardagi ijtimoiy tarmoqlarda haddan tashqari vaqt o‘tkazish, o‘z-o‘ziga ishonch pastligi, atrof-muhitdagi muammolar tufayli umidsizlik, bilim yetishmasligi, dangasalik kabi prokrastinatsiya sabablari aniqlandi.

Prokrastinatsiyani bartaraf etish uchun quyidagi usullar tadbiq etildi:

Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi	Irratsional e’tiqodlarni o‘zgartirish
Vazifalarni maydalash	Pomodoro texnikasi
2 daqiqa qoidasi	James Clear metodikasi
Ijtimoiy majburiyat	Do‘stlar bilan o‘zaro nazorat
Gamification	Vazifalarni o‘yin shakliga keltirish

4. Qoniqish komponenti. Xobbi asosida maqsadga erishish. O‘quvchilarga o‘z xobbilari doirasida qisqa muddatli maqsad qo‘yish topshirildi. Natijada she’r, hikoya yozish, rasm chizish, yog’ochdan o‘rindiq yasash, ko‘ylak tikish, sharf to‘qish, robot yasash, sport o‘yinlarida g‘alabalar qo‘lga kiritish, ingliz tilida hikoya yozish kabi faoliyatlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Eksperiment yakunida ta‘ror so‘rovnoma natijalari o‘quvchilarda ta’lim olishga yuqori ishtiyoq, o‘z-o‘ziga ishonchi ortishi, mas’uliyat hissi shakllanishi, hamjihatlik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, maqsadga yo‘nalganlik kabi ijobiy xarakterlar shakllangani kuzatildi.

Tadqiqot jarayonida ARCS modelining bir qator kamchiliklari aniqlandi:

1. Soddalashtirilganligi. Model motivatsiyani ketma-ket jarayon sifatida tasvirlaydi, ammo amalda bu yanada murakkab;
2. Ijtimoiy kontekstga yetarlicha e’tibor bermasligi. Guruh dinamikasi, madaniy omillar yetarli darajada hisobga olinmagan;.
3. Amaliyotda qo‘llash qiyinligi. Cheklangan vaqt va resurslar sharoitida joriy etish muammolari;
4. Baholarning subyektivligi. «Muhimlik» va «qoniqish» darajasini aniqlash o‘quvchining shaxsiy idrokiga bog’liq;
5. Empirik isbotlarning yetishmasligi. Ba’zi komponentlar uchun yetarli ilmiy dalillar mavjud emas.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ARCS motivatsion modeli sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda samarali qo‘llanilishi mumkin. Model maktab sharoitida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta’minlash va shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashuvchi kuchli vosita hisoblanadi. ARCS modelini sinfdan tashqari ishlarda doimiy ravishda qo‘llash, videokontentlar, metakognitiv strategiyalar va xobbi asosidagi faoliyatlarni integratsiyalash, prokrastinatsiya va kognitiv dissonans muammolariga alohida e’tibor berish, modelning har bir komponentini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish, ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda, modelni takomillashtirish kabi faoliyatlar yuqori natijalarga samarali vosita bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Keller J.M. (1987). Development and use of the ARCS model of instructional design. Journal of Instructional Development.

(2). Dincher S. (2020). Meta-analysis of ARCS model effects on student motivation. Çukurova University Research.

(3). Fang Y. (2023). ARCS model in instructional design: Empirical studies 2011-2022. Educational Technology Research.

(4). Prasetya I. (2024). Augmented reality and ARCS motivational design: Effects on learning outcomes. Journal of Educational Innovation.

(5). Clear J. Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones.